



2021- yil yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyatida qurilish ishlari

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Toshkent viloyatida jami **5352,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2020- yilning mos davriga nisbatan **117,4 %**ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʻz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda



2021- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 3,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 458 taga oshdi.

Jami qurilish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar soni ko'payishining asosiy omili, bu bino va inshootlar qurishda o'tgan yilga nisbatan **110,3 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **52,5 %**), fuqarolik obyektlarini qurish **117,2 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **7,8 %**), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining **117,1 %**ga (jami qurilishdagi ulushi **39,7 %**) o'sishidir.




Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)

	holatiga ko'ra:		O'tgan yilning mos davriga nisbatan, %da
	2020- yil 1-sentyabr	2021- yil 1- sentyabr	
Toshkent viloyati	3402	3860	113,5
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	165	187	113,3
Olmaliq	203	223	109,9
Angren	260	272	104,6
Bekobod	169	183	108,3
Ohangaron	105	124	118,1
Chirchiq	288	305	105,9
Yangiyo'l	81	89	109,9
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	92	100	108,7
Ohangaron	74	86	116,2
Bekobod	101	115	113,9
Bo'stonliq	121	144	119,0
Bo'ka	98	122	124,5
Quyi Chirchiq	87	98	112,6
Zangiota	230	263	114,3
Yuqori Chirchiq	200	225	112,5
Qibray	328	402	122,6
Parkent	99	120	121,2
Piskent	77	80	103,9
O'rta Chirchiq	216	219	101,4
Chinoz	109	128	117,4
Yangiyo'l	161	191	118,6
Toshkent	138	184	133,3



Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni 2021- yil 1- sentyabr holatiga ko'ra (ulushi %da)




Ma'lumot uchun: Viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Qibray tumanida (10,4 %), Chirchiq (7,9 %) va Angren (7,1 %) shaharlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **1052,4** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **110,7 %** oʻsish koʻrsatkichiga erishildi. Jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **1,1 %** punktga kamaydi, **19,7 %**ni tashkil etdi.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Chirchiq shahar (jami qurilish ishlari hajmining **15,5 %**i yoki 2020- yilning mos davriga nisbatan **104,7%**), Qibray (jami qurilish ishlari hajmining **60,4 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **143,8 %**) va Yuqori Chirchiq (jami qurilish ishlari hajmining **38,2 %**i yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **191,6 %**) tumanlariga toʻgʻri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %da




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,4 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning mos davriga nisbatan **6,0 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **105,6 %**ni tashkil etgan holda **2967,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24,9 %**ni tashkil etdi yoki **1333,0** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **166,3 %**ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **185,4** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarildi yoki 2020- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **2,7** barobar oʻsdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5167,0** mlrd. soʻm qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati **115,1** %ni tashkil etdi. Ularning viloyatdagi tutgan ulushi mos ravishda **3,5** % va **96,5** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat boʻlgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-avgust oylarida

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, %da	Jami qurilish pudrat ishlari hajmida hududlarning ulushi, %da
Toshkent viloyati	5352,4	117,4	100,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	288,9	103,4	5,4
Olmalik	264,4	96,6	4,9
Angren	195,6	98,5	3,7
Bekobod	154,4	109,8	2,9
Ohangaron	125,0	190,6	2,3
Chirchiq	277,7	92,4	5,2
Yangiyo'l	104,9	92,7	2,0
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	108,8	99,1	2,0
Ohangaron	211,4	98,5	4,0
Bekobod	123,8	217,5	2,3
Bo'stonliq	229,8	142,5	4,3
Bo'ka	146,6	101,5	2,7
Quyichirchiq	201,4	106,3	3,8
Zangiota	693,4	174,9	13,0
Yuqorichirchiq	413,8	137,9	7,7
Qibray	601,4	130,5	11,2
Parkent	232,9	123,3	4,4
Piskent	209,0	100,9	3,9
O'rta Chirchiq	261,2	98,5	4,9
Chinoz	118,0	100,4	2,2
Yangiyo'l	168,3	107,0	3,1
Toshkent	221,7	101,5	4,1



Hududlar kesimida qurilish ishlari, 2021- yil yanvar-avgust oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

1 Zangiota t
693,4

2

Qibray t
601,4

3

Yuqori Chirchiq
413,8



Kichik hajm

(mlrd. so'm)

1 Ohangaron sh
125,0

2

2 Oqqo'rg'on t
108,8

3 Yangiyo'l sh
104,9



1

3

Toshkent viloyati statistika boshqarmasi
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Aloqa telefoni: (71) 202-86-70